

SHUKUR XOLMIRZAYEV IJODINING O'ZIGA XOSLIGI

Qurbonov Dilshodbek Norxidir o'g'li

*Termiz Davlat Universiteti Milliy libos va san'at fakulteti
Madaniyat va San'at Muassasalarini tashkil etish hamda boshqarish
yo`nalishi 2-bosqich talabasi*

Annotatsiya: ushbu maqolada Shukur Xolmirzayev ijod yuli uning Hikoyalari haqida va hikoyalarining bosh qaxramonlarining ijobiy va salbiy obrazlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: povest, hikoya, Inod, Yozuvchi, hikoyanavis, Adib, adabiyotshunos, janr, ovoz, surxon, o'zbek, xalq

Shukur Xolmirzayev hozirgi o'zbek adabiyotida o'z ovozigacha, uslubiga ega bo'lgan ijodkorlardan biri hisoblanadi. U adabiyotimizga 1962-yil "Oq o'tli" povesti (hikoya) bilan kirib keldi. Asar bolalar uchun yozilgan bo'lib, unda yoshlarning o'ziga xos orzu-o'ylari va hayotga qarashlari aks etgan. Yozuvchi hikoyanavis sifatida qaysi mavzuni qalamga olmasin, qandaydir muhim, salmoqdor ijtimoiy fikr ifodalashga intiladi. Uning bu xususiyatlari ayniqsa keying yillarda yaratilgan "Shudring tushgan bedazor", "Cho;loq turna", "Podachi", "Ko'k dengiz", "Qadimda bo'lgan ekan", "Tabassum", "Ustoz", "Farzand" kabi hikoyalarida yaqqol namoyon bo'lgan. Sh.Xolmirzayev hikoyalarida, asosan, Surxon vohasining koloriti yorqin sezilib turadi. Shunday hikoyalardan biri 1971-yilda yozilgan "Ot egasi" hikoyasidir. Shukur Xolmirzayev asarlari hayotda, inson qalbida yechilmay yotgan muamolarning badiiy tahliliga qaratilgan. Yozuvchi qahramonlari asar g'oyasini,

Badiiy topilmalarni kitobxon og'ziga chaynab solmaydi. Noshud, hayotda to'g'ri yo'l topolmagan, beo'xshov yoki razil qahramonlarini asar nihoyasiga borib tugatmaydi, yaxshilamaydi. Ularni o'zining badiiy niyati amalga oshirilgan darajada hayotdagiday qoldirib, kitobxon hukmiga havola etadi. Bu uslub asar va qahramon haqida mushohada yuritish uchun o'quvchiga keng imkoniyat qoldiradi. Adib asarlari qahramonlari aksari uning o'zi tug'ilib o'sgan tuproq – Surxon diyorining mehnatkashlaridir. Asar voqealari sodir bo'ladigan manzil ham ko'pincha shu voha bo'ladi. Shu voha qahramonlari timsoli misolida adib o'zbek xalqining, o'zbek tuprog'ining o'ziga xosliklarini tajassum etadi. Yozuvchi asar qahramonlarini oqlamaydi ham, qoralamaydi ham. Asosiy e'tiborni ularning qalbi, ma'naviyati, do'stlarga, yangi hayotga, o'zgarishlarga munosabatini ko'rsatishga qaratadi va hukm chiqarishni o'ziga qoldiradi. Adib asarlarining g'oyalari bir-birini to'ldirib boradi, tasvirlangan qahramonlar harakatidan, tabiatidan chiqarilgan xulosalar bir-birini yanada boyitadi, milliy o'zligimizning turli qirralarini alohida xarakterlar orqali

tasvirlab, xalq qiyofasidagi yaxlit qiyofaning turli jihatlarini ochib beradi. Yozuvchi asarlari tasvirida tirikchilik qiyinchiliklari bilangina o`ralashib qolmaydi, ma`naviyat masalalariga ham alohida e`tiborni qaratadi. Zamon talotumlari ma`naviyatimiz mustahkamligi va mustaqilligida jiddiy salbiy iz qoldirayotganiga ishora qiladi. Bunga, bir jihatdan, avvalambor, jamiyat norasolliklari sabab, qolaversa, ikkinchi jihatdan, bu hol ko`proq irodasi sust kishilarda namoyon bo`lmoqda. Irodasi mustahkam kishilarning esa irodasini Inson hayotini uni o`rab turgan tabiatdan holi tasavvur etib bo`lmaydi. Tabiatning esa ming bir giyohi, jonzoti bor. Insonning o`zi ham, bir mavjudod sifatida tabiat farzandi hisoblanadi. "Ot egasi" hikoyasi talqinini, avvalo, bosh qahramonga tanlangan ismni tushunishdan boshlash kerak. Hikoyaning bosh qahramoni Inod. Inod- arabchadan olingan bo`lib, "cho`rtkesar", "qat`iyatli", "qaysar" ma`nolarini beradi.

Asar muqaddimasi va oxirida alohida ta`kidlanganidek, Inodning hech narsaga alishmaydigan boyligi-ko`ngil mulki bor. Garchi otasidan juda erta, xotini va farzandlaridan fojiali tarzda ayrilgan bo`lsa-da, ulardan yodgor, judolik taftini bosib turadigan qishlog`I, maktabi hamda qorabayir oti unga madad. Qorabayirga qarab faqat "zo`r" tulporni ko`rayotgan kichik leytenant Egamberdi Xudoyberdiyev uchun esa Inodning ko`ngli, unda kechayotgan tuyg`ular begona. Birovning mulk-u molini o`zlashtirishdan vijdoni qiynalmaydigan bu kimsa, endi o`sha birovning ko`ngil boyligiga ham chang solmoqni xohlaydi. O`sha "birov" deganlari ham odam ekanligini, faqat qorabayirdan ayrilmaslik uchun u nega hamma narsasidan voz kechmoqqa tayyorligi Egamberdini bir zum bo`lsin o`ylatmaydi. U niyatiga yetishsa- qorabayirga ega bo`lsa bo`ldi. fikrlarni dalillash talab etiladi.

Bizga malumki Inodning 3 boyligi bulgan ular uchun Inod hamma narsaga tayyor edi. To`g`risini aytganda ulardan boshqa Inodning hech nimasi yuq edi.

1. qishlog`i
2. maktabi
3. Tulpori

Ushbu hikoyani o`qigan inson hikoyadagi asl maqsadni tushunadi . kitob o`qisak fikrlashimiz usadi va Dunyoga teran nigoh bilan qaraymiz va hayotning oq va qora ranglarini yaxshiroq achrata olamiz shunig uchun kitob o`qishimiz lozim bunda bizga Shukur Xolmirzayev ijodini o`rganish qo`l keladi .

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. 8-sinf adabiyot darsligi G`ofur G`ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, Toshkent-2019
2. Sh.Xolmirzayev. "Ot egasi" audio hikoya. www.kh-davron.uz
3. R.Ishmuhammedov, M.Yuldashev Ta`lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. Toshkent "Nihol"- 2016.